



93. Sonni bo'lish. Bo'lish komponentlari

Yondosh mavzu:
haqqoniylik.

Bo'lish,
bo'linuvchi, bo'luvchi,
bo'linma.



1. Ruxsora bilan Malika 20 ta qalamni ikki kishiga baravardan qilib bo'lishdi. Har qaysi qiz nechtdan qalam oldi?




2. a) Ona 15 ming so'm pulni uchta qiziga baravardan bo'lib berdi. Har bir qizga qanchadan pul tegdi?



- b) Masalani shunday almashtiringki, uning javobi $5 \cdot 3 = 15$ ifoda bo'lsin.

Bo'lish

a sonini b ga bo'lish – a soni hosil bo'lishi uchun qanday qo'shiluvchini b marta qo'shish kerakligini bilish.



$$10 : 2 = 5$$

bo'linuvchi bo'luvchi bo'linma



3. Sxema bo'yicha hisoblang. Nimani aniqladingiz?


a) $12 : 2 \rightarrow \boxed{} : 2 \rightarrow \boxed{?}$

b) $14 : 2 \rightarrow \boxed{} : 2 \rightarrow \boxed{?}$

93. Sonni bo'lish. Bo'lish komponentlari



4. Birinchi usta birinchi kun 42 ta detal, ikkinchi kun 18 ta ko'p detal yasadi. Ikkinchi usta birinchi kun 55 ta, ikkinchi kun esa 7 ta kam detal yasadi. Agar ular bir xil detal yasagan bo'lsalar, kim ko'proq pul olishi kerak?



?

eskisi



5. Taqqoslang.

$18 : 2 \square 16 : 2$

$2 \cdot 6 \square 2 \cdot 4$

$22 : 2 \square 20 : 2$

$20 : 2 \square 10 : 2$

$7 \cdot 2 \square 3 \cdot 4$

$18 : 2 \square 6 \cdot 2$



6. Noma'lumlarning shunday qiymatlarini tanlangki, natijada tengliklar to'g'ri bo'lsin.

$x \cdot 3 = 18$

$4 \cdot y = 8$

$z \cdot 5 = 20$

$m + m + m = 9$

$n + n = 12$

$t + t + t = 30$



7. Bo'ling.

a) 16 ta konfetni 4 dugonaga;

b) 15 ta jetonni 5 qismga;

d) 10 kishini 2 jamoaga;

e) 24 ta kartochkani 4 kishiga



8. Hisoblang.

$(652 + 139) - 420$

$400 - (121 + 118)$

$227 + (812 - 758)$

$840 - (650 - 245)$



9. Masalalarni yeching.

a) Bitta dastgoh bir minutda 2 ta detalga ishlov beradi. Shunday 9 ta dastgoh bir minutda nechta detalga ishlov beradi?

b) Qog'oz qutiga konfetlar 2 qator qilib taxlangan. Har bir qatorga 6 ta konfet joylangan. Qutida nechta konfet bor?